



#BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!



FARZANDINGIZNI BOG‘CHAGA JOYLASHTIRAYOTGANINGIZDA...

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi “Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 244-sonli qaroriga asosan bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga joylashtirishga yo‘llanma olish uchun, ota-onalar yoki ularning o‘rmini bosuvchi shaxslar Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali murojaat qiladilar.

I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarning bolalari;

ko‘p bolali oilalarning bolalari;

yetim bolalar yoki ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg‘iz ayollarning bolalari;

kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarning va ichki ishlar organlari xodimlarining bolalari;

talabalar va pedagoglarning bolalari;

akalari yoki opalari ushbu muassasaning tarbiyalanuvchilari jumlasidan bo‘lgan bolalar;

ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlardan umumiy turdagi maktabgacha tashkilotlarga o‘tkazilayotgan sog‘aygan bolalar.

Yo‘llanmalar tashkilotlarda o‘rinlar bo‘shagan kuni navbatga muvofiq rasmiylashtiriladi. Bunda imtiyozli ro‘yxatga kiritilganlar bo‘yicha yo‘llanmalar umumiy ro‘yxatga kiritilganlarga nisbatan birinchi navbatda rasmiylashtiriladi.

Bolalarni tashkilotga qabul qilish bo‘yicha yo‘llanmalar kelib tushgan yoki taqdim etilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida, belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Bolalarni tashkilotga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmati bepul amalga oshiriladi.

**MTT rahbari yoki boshqa shaxs Sizga pul, tashkilot
uchun texnika, o‘yinchoq yoki shunga o‘xshash ma’lum
bir xizmat evaziga, navbatsiz joylashtirishni taklif etsa....**

**BILINGKI U SIZDAN PORA
TALAB QILMOQDA.**

AGAR FARZANDINGIZ MAKTABGA BORAYOTGAN BO‘LSA...

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomga asosan maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan umumta’lim muassasalariga birlashtirilgan hududlar (mikrohudud) doirasida umumta’lim muassasasi pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro‘yxatga olish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda bola O‘zbekistondagi har qanday umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi sinfiga borish huquqiga. Maktabga birgina sabab bilan qabul qilmasliklari mumkin, ya’ni joy bo‘lmasa. Har bir maktab birinchi navbatdagi o‘z mikro hududidagi bolalarni qamrab olganidan so‘ng, agar joy qolsa boshqa hududlardan o‘quvchilarni qabul qiladi.

Maktab rahbarlari yoki boshqa shaxslar
Sizga pul, muassasa uchun proyektor,
parda yoki boshqa shunga o‘xshash
xizmat evaziga maktabga joylashtirishni
taklif etsa

O‘zbekiston
Respublikasi
Konstitutsiyasi
41-modda

BILINGKI U SIZDAN **PORA**
TALAB QILMOQDA.



AGAR SIZ BOSHQA JOYGA KO‘CHAYOTGAN VA MAKTABNI ALMASHTIRAYOTGAN BO‘LSANGIZ....

Bu yil o‘quv yili o‘rtasida ham amalga oshirsa bo‘ladi. O‘zingiz ko‘chib o‘tayotgan uyga eng yaqin ya’ni yashash joyida beligilangan mirkohududiga kiradigan maktabga joylashtirishningiz lozim bo‘ladi. Agar bu maktabda joy yo‘qligi sababli rad etilsa tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan eng yaqin bo‘lgan boshqa maktablar taklif etilishi lozim.

Maktab rahbari yoki boshqa shaxslar tomonidan maktablarda “umuman yo‘q” degan baho bilan Sizdan sinf uchun jihoz, o‘quv qurollari yoki boshqa narsalar xarid qilishni talab qilsa.....

**BILINGKI U SIZDAN PORA
TALAB QILMOQDA.**

MAKTAB O‘QUVCHISI, AKADEMIK LITSEY YOKI KOLLEJ TALABASI BO‘LGAN FARZANDINGIZ IMTIHON TOPSHIRAYOTGAN BO‘LSA.....


Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi barcha imtihonlar bepul. Sinovlarda qoniqarli baho olgan barcha o‘quvchilar ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

Maktab rahbarlari yoki o‘qituvchilari imtihonda yordam berish uchun, pul yoki boshqa narsa talab qilishsa

BILINGKI U SIZDAN PORA TALAB QILMOQDA.

AGAR TALABA FARZADINGIZ OLIYGOHDA IMTIHON TOPSHIRAYOTGAN BO‘LSA.....

O‘quv rejasi va imtihon o‘tkazish bo‘yicha mezonlar bor. Agar siz o‘qituvchi qandaydir rag‘bat ilinjida talablarni kuchaytirayotganini bilsangiz...



BILINGKI U SIZDAN PORA TALAB QILMOQDA.

XORIJIY DIPLOMINGIZNI O‘ZBEKISTONDA TAN OLINISHI UCHUN MUROJAAT QILGANINGIZDA

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi **“Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibini takomillashtirish haqida” 620-sonli** qaroriga asosan xorijiy diplomlarni tan olish bo‘yicha arizalar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali qabul qilinadi.

Xorijiy davlatlarda o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’limi olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining **uch baravari** miqdorida yig‘im undiriladi.

Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish quyidagi hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri (sinovlarsiz) amalga oshiriladi: xorijiy davlatlarda umumiy o‘rta, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va malaka oshirish ta’limi olgan talabgorlarning xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlari; O‘z Res hududida alohida bo‘linmalari (filiallari) va qo‘shma ta’lim muassasalari faoliyat yuritayotgan xorijiy ta’lim muassasalarida ta’lim olgan talabgorlarning hujjatlari; O‘z Res Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Davlat inspeksiyasining qo‘shma qarori bilan ro‘yxati har yili tasdiqlanadigan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (QS, THE , ARWU) reytingida oliy ta’lim muassasalari orasida birinchi 1 000 o‘rinni egallagan xorijiy OTMlarida ta’lim olgan talabgorlarning hujjatlari; tizimida OTMlari bo‘lgan O‘z Res vazirliklari va idoralarinig yo‘llanmalari asosida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar (grantla) hisobidan ta’lim olgan talabgorlarning hujjatlari;

- 1992-yil 1-yanvargacha xorijiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan talabgorlarning hujjatlari;
- Oliy ta'limda sifatni kafolatlash Yevropa assotsiatsiyasining (European Association for Quality Assurance in Nigher Education) to'laqonli a'zolari — vakolatli tashkilotlar tomonidan akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarida ta'lim olgan talabgorlarning hujjatlari, ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo'nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;
- Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya Ittifoqi, Isroil Davlati, Kanada, Singapur Respublikasi, Koreya Respublikasi, Yaponiya davlatlarining ushbu davlatlar vakolatli tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarida ta'lim olgan talabgorlarning hujjatlari, ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo'nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;
- xorijiy oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O'z Res vazirliklari va idoralari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga ta'lim olgan talabgorlarning hujjatlari;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar.
- Shuningdek, ekspert komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan xorijiy OTM diplomini tan olish uchun faqatgina mutaxassislik fanlari bo'yicha kompyuterda test sinovi bajariladi va natija sinov yakunlangan zahoti ekranda ko'rinadi. Agar sinovdan o'ta olmasangiz qayta ariza bergan holda kelgusi sinovlarda yana ishtirok etishingiz mumkin.

Agar kimdir Sizga moddiy rag'bat evaziga mazkur jarayonda yordam berishini, hujjatlarni tezlashtirib berishni yoki boshqa biron yordamini taklif qilsa.....

BILINGKI SIZDAN PORA TALAB QILISHMOQDA.

MALAKA TOIFA UCHUN ATTESTATSIYA TOPSHIRISH JARAYONIDA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Ta’lim inspeksiyasi rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali amalga oshiriladi.

Bunda:

Nizomning 2-ilovaga muvofiq so‘rovnoma

Pedagog kadrning ta’lim to‘g‘risidagi hujjati (xorijiy davlatda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatni O‘zbekiston Respublikasida tan olish haqidagi guvohnoma);

Qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganligi haqidagi diplom nusxasi (agar mavjud bo‘lsa);

Pedagog kadrning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash natijalari yuzasidan ma’lumotnoma topshiriladi.

Agar sizdan yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlardan ortig‘ini taqdim etishni talab qilishayotgan va buning uchun qandaydir ortiqcha xizmatlar taklif etilayotgan bo‘lsa...

**BILINGKI SIZDAN PORA TALAB
QILISHMOQDA.**

MALAKA TOIFA UCHUN ATTESTATSIYA TOPSHIRISH JARAYONIDA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq

pedagog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

Agar sizdan yuqorida ko‘rsatilgan miqdordagi yig‘imdan ortiq to‘lovni amalga oshirishni talab qilishayotgan va buning uchun qandaydir ortiqcha xizmatlar taklif etilayotgan bo‘lsa...

**BILINGKI SIZDAN PORA TALAB
QILISHMOQDA.**

ENDI BIZ **PORA** NIMALIGI HAQIDA BATAFSIL AYTIB BERAMIZ BERAMIZ

Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.

*O'zbekiston Respublikasi
Jinoyat kodeksining "Pora
olish" 210-moddasini albatta
o'qib chiqing*

PORANING QANDAY KO'RINISHLARI BOR

➤ Pora evaziga og'irib olish, bunda pora berayotgan va olayotgan o'rtasida avvaldan kelishuv mavjud bo'ladi.

➤ **Minnadorchilik porasi bor**, bunda pora mansabdor shaxs tomonidan sodir etib bo'lingan harakat yoki harakatsizlik uchun (qonuniy yoki noqonuniy) avvaldan kelishuvsiz beriladi.

YANA NIMA **PORA** HISOBLANADI

Agar mansabdor shaxsdan tashqari, uning qarindoshlari va yaqinlariga pul, moddiy qimmatliklar berilgan yoki moddiy xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, shunday holatda mansabdor shaxs rozi bo'lib, e'tiroz bildirmay pora berayotgan foydasiga o'zining mansab vakolatlaridan foydalanganda.

PORA QACHON OLINGAN HISOBLANADI:

➤ Odam **uni jismoniy ma'noda qabul qilganda** (qo'lga olib: cho'ntakka, sumkaga, jomadonga, avtomashinaga solganda).

➤ Odam **uning berilishiga rozilik bildirganda** (stolga qo'yish, hisob raqamga o'tkazish).

Poralar haqida hammasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida:

O'zb. JK 210-modda

"Pora olish"

O'zb. JK 211-modda

"Pora berish"

O'zb. JK 212-modda

"Pora olish-berishda vositachilik qilish"

O'zb. JK 213-modda

"Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish"

Shuningdek:

O'zb. JK 214-modda

"Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi

xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi"

O'zb. JK 192.9-modda

"Tijoratda pora evaziga og'dirib olish"

O'zb. JK 192.10-modda

"Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish"

DEMAK, TA'LIM TASHKILOTI XODIMI RAG'BATLANTIRISHNI SO'RAMOQDA. SIZNING HARAKATLARINGIZ ?

PORA BERMANG VA PORA TAKLIF QILMANG !



Aks holda siz o'zingiz jinoyat sodir etgan bo'lasiz.
(211-modda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi).
Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish
uchun tamagirning talablarini oxirigacha tinglang .



O'zingiz yolg'iz qolgan paytingiz zudlik bilan huquqni muhofaza
qiluvchi organlarga murojaat qiling!

Agar sizda suhbat yozishmasi bo'lsa, uni huquqni
mufoza qilish organlariga taqdim etish uchun
saqlab qo'ying.



QAYERGA QO‘NG‘IROQ QILISH KERAK?

- 1007– O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ishonch telefoni
- 1102– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Iшонch telefoni
- 1006 – Ta’lim masalalari bo‘yicha yagona ishonch telefoni
- 1000 yoki 0-800-210-00-00 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi
- +998 71 231-07-53 (1133) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

ARIZA

yozishdan avval.....

unutmang

Pora talab qilinayotgani haqida uydirma fakt uchun jinoiy javobgarlik belgilanadi. Yolgʻon xabar berish – jarima, yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar dadillar sunʼiy tarzda yaratilgani isbotlansa ozodlikdan mahrum qilish jazosi sakkiz yilgacha oshirilishi mumkin.

*Oʻzbekiston
Respublikasi
Jinoyat kodeksining
237-moddasi*



TAMAGIRNI QANDAY QILIB JAVOBGARLIKKA TORISH MUMKIN ?

Siz o‘zingizga yaqin bo‘lgan ichki ishlar, prokuratura yoki davlat xavfzlik xizmati bo‘limlariga murojaat qilib **ariza yozishingiz lozim**.

Jinoyat haqida **og‘zaki yoki yozma** ko‘rinishda murojaat qilishingiz mumkin.



Jinoyat haqidagi yozma arizaga imzo chekishingiz lozim.

Javobni olish uchun yashash manzili va elektron pochta manzilini ko‘rsatib o‘ting.



Og‘zaki ariza Siz va murojaatni qabul qilayotgan xodimlar tomonidan imzolanadigan bayonnomaga kiritiladi. Bayonnomada Siz, yashash va ish joyingiz, shuningdek shaxsiy hujjatlaringiz to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilishi lozim.

Sizni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **237-moddasiga** asosan yolg‘on xabar berish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jinoiy javobgarlik bo‘yicha ogohlantirishadi va bu haqida bayonnomada qayd qilinadi. Imzo cheking



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JINOYAT KODEKSI

210-modda



Pora olish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lishi, —



bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pora olish:



- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 211 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) tamagirlik yo‘li bilan;
- g) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, —
besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Pora olish:



- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —
o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JINOYAT KODEKSI

211-modda



Pora berish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Pora berish:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Pora berish:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, — o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Basharti, shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoyiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JINOYAT KODEKSI

212-modda

- Pora olish-berishda vositachilik qilish, ya’ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.
- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;



- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida;
- v) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo‘lgan holda sodir etilgan bo‘lsa, —
besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Pora olish-berishda vositachilik qilish:

- a) haq evaziga;
- b) juda ko‘p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida;
- v) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, —



O‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JINOYAT KODEKSI

213-modda



Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.



O‘sha harakatlar ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



O‘sha harakatlar:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 — 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Basharti moddiy qimmatliklar bergan yoki mulkiy manfaatdor etgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.